

“O‘ZAGROSUG‘URTA” AKSIYADORLIK JAMIYATINING “OMADLI SUG‘URTA” NOMLI AKSIYASI QOIDALARI

1. Mazkur qoida “O‘zagrosug‘urta” AJ (keyingi matnlarda “**Sug‘urtalovchi**”) tomonidan o‘tkaziladigan “**Omadi sug‘urta**” nomli aksiya o‘tkazilishining rasmiy qoidasi hisoblanib, O‘zbekiston Respublikasi Fuqarolik Kodeksining 369 va 370-moddalariga asosan ommaviy oferta hisoblanadi hamda mazkur aksiyada qatnashuvchilar (keyingi matnlarda “**Ishtirokchi**”) uchun majburiy hisoblanadi.

2. Mazkur aksiya ommaviy marketing tadbiri bo‘lib, aksiya o‘tkazilishidan asosiy maqsad mijozlarni kompaniya xizmatlaridan foydalanishga bo‘lgan qiziqishlarini orttirish, Kompaniyaning sug‘urta bozoridagi ijobiy imidjini mustahkamlash, yangi mijozlarni jalb qilish, onlayn sug‘urta xizmatlarini ko‘paytirib borish, mavjud sug‘urta turlari haqidagi ma’lumotlarni tarqatish, OAV va kompaniya o‘rtasida mustahkam aloqalar o‘rnatish va Sug‘urtalovchi daromadlarini oshirishga qaratilgan harakatlar majmui.

3. Ushbu aksiyada **18 yoshga kirgan** va voyaga yetgan, qonunchilikda belgilangan tartibda muomalaga layoqatli deb topilgan jismoniy shaxslar ishtirok etishi mumkin. Ushbu talablarga javob bermaydigan jismoniy shaxslar ishtirokchi sifatida baholanmaydi va o‘z-o‘zidan aksiya g‘olib bo‘lgan taqdirda ham sovg‘alar berilmaydi.

4. Ushbu aksiya doirasida **2 (ikki)** toifadagi Ishtirokchilar qatnashadi:

1. 2023-yilning 1-oktabrdan 2024-yil 1-fevralga qadar jismoniy shaxslar tomonidan Jamiyatning <http://agros.uz> rasmiy veb-sayti orqali onlayn ixtiyoriy sug‘urta mahsulotlari hamda ixtiyoriy oflayn sug‘urta polislarini (ro‘yxat ilovaga muvofiq) belgilangan talab va shaklda sotib olgan sug‘urta qildiruvchilar o‘rtasida;

2. Aksiya davrida hududlarda eng ko‘p sug‘urta mukofotini ta‘minlagan 3 (uch) nafardan sug‘urta agentlar o‘rtasida.

5. Aksiya doirasida quyidagi sovg‘alar taqdim etiladi:

2023-yilning 1-oktabrdan 2024-yil 1-fevralga qadar Jamiyatdan sug‘urta polislarini xarid qilgan sug‘urta qildiruvchilar orasidan **8 (sakkiz) nafar** obunachi kompyuterda Random dasturi orqali tasodifiy tanlab olinadi va ketma-ket tarzda quyidagi sovg‘alar taqdim etiladi.

- 1. 5 dona Noutbuk HP 250 G8 3V5P9EA;**
- 2. 2 dona Iphone 15 smartphone;**
- 3. 1 dona avtomobil CHERY Arrizo 6 PRO.**

Shuningdek, aksiya davrida hududlarda eng ko'p sug'urta mukofotini ta'minlagan 3 (uch) nafardan sug'urta agentlar orasidan tasodifiy **3 (uch) nafarini** kompyuterda Random dasturi orqali tasodifiy tanlab olinadi va ketma-ket tarzda quyidagi sovg'alar taqdim etiladi:

1. **1 dona Samsung Galaxy S23 8/128 Gb Green smartphone;**
2. **2 dona Apple watch 8;**
3. **1 dona Noutbuk HP 250 G8 3V5P9EA.**

6. Jamiyat xodimlari va sug'urta agentlari sug'urta qildiruvchilarning aksiyada to'liq ishtirok etishlarini ta'minlashi uchun oflayn shaklda sug'urta polisi xarid qilgan mijozlar ma'lumotlarini "O'zagrosug'urta" AJning www.uzagrosonline.agros.uz axborot tizimiga o'z vaqtida, to'g'ri va to'liq shaklda ("*Sug'urta qildiruvchi*" mijozning *FIOsi, pasport, yashash manzili, telefon raqami ka'bi ma'lumotlar*) majburiy kiritib borishga mas'ul hisoblanadi.

7. Aksiya jarayonining shaffofligini ta'minlash maqsadida, aksiya ishtirokchilari soni haqidagi ma'lumotlarni har oyda "O'zagrosug'urta" AJning rasmiy sahifalarida e'lon qilib boriladi.

8. Har bir aksiya doirasida ishtirokchilar ro'yxati bir joyga jamlanadi va jamlangan ma'lumotlar kompyuterda Random dasturiga tushirilib **1 nafardan** g'olib aniqlab boriladi.

Ma'lumotlarni jamlash va g'olibni aniqlashda foydalanish uchun:

– Jamiyat tizimida **ilovadagi ro'yxat bo'yicha** sotilgan barcha (*onlayn/oflayn*) ixtiyoriy turdagi sug'urta polislari bo'yicha **polis raqamidan va sug'urta qildiruvchi F.I.Osidan**;

– Jamiyat aksiyasida faol qatnashgan hududiy agentlar eng ko'p tushum tushirganlari **F.I.Osidan**.

9. Ushbu aksiya doirasida g'oliblarni aniqlash maqsadida Sug'urtalovchi tomonidan ishtirokchilarning ma'lumotlari qayta ishlanadi hamda tegishli sovg'alar:

– Jamiyat tizimida **ilovadagi ro'yxat bo'yicha** sotilgan **barcha ixtiyoriy turdagi** (*onlayn/oflayn*) sug'urta polislari bo'yicha tanlov g'olibining **ismi-sharifi va otasining ismi va sug'urta polisining raqami**;

– Jismoniy sug'urta agentlari orasida o'tkazilgan tanlov g'olibining **ismi sharifi va otasining ismi** e'lon qilinadi.

10. Sug'urtalovchi tomonidan aksiya shartlari va o'tkazish muddatlari ishtirokchilarni Sug'urtalovchining ijtimoiy tarmoqlardagi rasmiy kanallari va/yoki rasmiy veb-saytida ogohlantirishi orqali o'zgartirilishi mumkin.

11. Sug'urtalovchi quyidagi majburiyatlarni o'z zimmasiga oladi:

– aksiya ishtirokchilari to'g'risidagi shaxsiy ma'lumotlarni sir saqlash, qonunchilikda ko'rsatilgan hollar bundan mustasno;

– aksiya shartlari va muddatlari to'g'risidagi ma'lumotlarni Sug'urtalovchining ijtimoiy tarmoqlardagi rasmiy kanallari va/yoki rasmiy veb-saytida joylashtirish.

12. Aksiya ishtirokchisi ushbu qoidada belgilangan aksiya shartlariga to'liq amal qilish majburiyatini o'z zimmasiga oladi.

13. Mijozlarga sovg'alarni taqdim etish bilan bog'liq barcha turdagi soliqlar Sug'urtalovchi hisobidan amalga oshiriladi.

14. G'oliblarni aniqlash jarayoni jamiyat joylashgan ofisda yoki boshqa manzillarda o'tkazilib, jarayon Jamiyatning ijtimoiy tarmoqlardagi rasmiy kanallarida yoki boshqa platformada onlayn efirga uzatiladi.

15. Aksiya doirasida belgilangan sovg'alar boshqa turdagi sovg'aga o'zgartirilmaydi.

Aksiya g'olibiga elektron pochta yoki yashash manziliga xabar yuborish, ko'rsatilgan raqamga SMS yuborish yoki telefon qilish orqali g'olib bo'lgani to'g'risida xabar beriladi.

Aksiya g'olibi unga xabar yuborilgan yoki u bilan bog'lanilgan kundan boshlab **90 (to'qson)** kun davomida sovg'ani olib ketmasa sovg'a Sug'urtalovchi hisobida qoladi va berilmaydi.

Sug'urtalovchi aksiya g'olibidan tegishli tartibda shaxsini tasdiqlovchi hujjatlarini va sug'urta polisi unga tegishli ekanligini tasdiqlashni talab qiladi.

Sovg'alar Sug'urtalovchi bosh ofisidan g'olibning shaxsan ishtirokida olib ketiladi.

16. Barcha turdagi, shu jumladan onlayn/oflayn sotilgan sug'urta polislari bo'yicha Ishtirokchi faqat 1 (bir) marta tanlov g'olibi bo'lishi va 1 (bir) dona sovg'a olishi mumkin.

17. Aksiya doirasida ko'zda tutilgan majburiyatlar tomonlarga bog'liq bo'lmagan va bartaraf etish mumkin bo'lmagan (Fors-major) hollarda tomonlar javobgarlikdan ozod etiladi.

18. Aksiya 2023-yilning 1-oktabr kuni soat 00-00 dan boshlanib, 2024-yilning 1-fevral kuni soat 23-59 ga qadar davom etadi. Aksiya g'oliblari 2024-yilning 22-fevral kuni e'lon qilinadi.

19. Aksiya O'zbekiston Respublikasi hududida o'tkaziladi va O'zbekiston Respublikasi fuqarolari uchun amal qiladi.

20. O'tkaziladigan aksiya doirasida kelib chiqadigan barcha nizolar tomonlar o'rtasida o'zaro kelishilgan holda hal etiladi. Hal etilmagan nizolar qonunchilikda belgilangan tartibda ko'rib chiqiladi.

MUHIM:

Ushbu aksiya doirasida Jamiyat bilan mehnat shartnomalarini davom ettirayotgan shaxslar ishtirokchi bo'lishi mumkin emas. G'olib bo'lgan ishtirokchilar o'rtasida Jamiyat bilan mehnat shartnomalarini davom ettirayotgan shaxslar aniqlangan taqdirda sovg'alar berilmaydi.

SUG'URTALOVCHI REKVIZITLARI:

“O'zagrosug'urta” AJ

Pochta manzili: O'zbekiston Respublikasi, Toshkent shahri, Chilonzor tumani, 19-kvartal 61/2-uy.

Hisobraqam: 20210000900101169001

“Mikrokreditbank” ATB Bosh ofisi

MFO 00433 INN: 201042345

Rasmiy veb-sayt: www.agros.uz

Elektron pochta: info@agros.uz

**“O‘zagrosug‘urta” AJ tomonidan o‘tkaziladigan “Omadli sug‘urta” nomli aksiyada ishtirok etadigan ixtiyoriy (onlayn/oflayn) sug‘urta turlari
RO‘YXATI**

| T/r | Sug‘urta turining nomi (ixtiyoriy sug‘urta) |
|-----|------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|
| 1. | Vaksinatsiya oqibatlaridan sug‘urta qilish shartnomasi. |
| 2. | Bolalarni baxtsiz hodisalardan kompleks sug‘urta qilish qoidalari. |
| 3. | Baxtsiz hodisalardan sug‘urtalash shartnomasi. |
| 4. | Talabalarni baxtsiz hodisalardan ehtiyot shart sug‘urta qilish qoidalari. |
| 5. | Sportchilarni baxtsiz hodisalardan ehtiyot shart sug‘urta qilish qoidalari. |
| 6. | Baxtsiz hodisalardan oilaviy ehtiyot shart sug‘urta qilish qoidalari. |
| 7. | O‘quvchilarni baxtsiz hodisalardan ehtiyot shart sug‘urta qilish qoidalari. |
| 8. | Mehmonxonada iste‘qomat qiluvchi shaxslar (sayyohlar)ni baxtsiz hodisalardan ehtiyot shart sug‘urta qilish qoidalari. |
| 9. | Sport-madaniyat tomoshagoh majmualarida tomoshabinlarni baxtsiz hodisalardan ehtiyot shart sug‘urta qilish qoidalari. |
| 10. | Shaharlararo yo‘nalishda qatnovchi avtobus yo‘lovchilarini baxtsiz hodisalardan ehtiyot shart sug‘urta qilish qoidalari. |
| 11. | Transport vositalari egalarining fuqarolik javobgarligini majburiy sug‘urta qilish sug‘urta turi bo‘yicha sug‘urta polisida ko‘rsatilgan haydovchilarni baxtsiz hodisalardan ehtiyot shart sug‘urta qilish qoidalari. |
| 12. | Aholining turar joy imoratlari va uy-ro‘zg‘or buyumlarini kompleks sug‘urta qilish qoidalari. |
| 13. | Ona va bolani baxtsiz hodisalardan kompleks sug‘urta qilish qoidalari. |
| 14. | Avtotransport vositalarini sug‘urtalash shartnomasi. |
| 15. | Avtotransport vositasiga o‘rnatilgan gaz uskunasiidan foydalanish oqibatida yuz berishi mumkin bo‘lgan qaltisliklardan sug‘urtalash qoidalari. |
| 16. | Ko‘p qavatli binolarda uy-joy (kvartira)larni kompleks sug‘urta qilish qoidalari. |
| 17. | Mehmonxonada istiqomat qiluvchi shaxslarni kompleks sug‘urta qilish qoidalari (baxtsiz hodisa, fuqarolik javobgarligi). |
| 18. | Jismoniy shaxslarni kompleks sug‘urta qilish qoidalari. |
| 19. | Jismoniy shaxslarning garovga qo‘yilayotgan mol-mulkini sug‘urtalash (avtotransport vositasi va ipotekadan tashqari). |
| 20. | Jismoniy shaxslarning garovga qo‘yilayotgan avtotransport vositalarini sug‘urtalash. |